

SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Rasulov Jamshid Karimovich

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi,
Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu maqola sanoat infratuzilmasining asosiy komponentlarini tahlil qilish, ularni boshqarish va optimallashtirish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ishlab chiqarish korxonalari, energetika tizimi, transport va logistika, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, texnologik sanoat zonalari hamda innovatsion xizmatlar va ilmiy-texnik infratuzilma komponentlari bo'yicha boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlari aniqlanib, har tomonlama tahlil qilingan. Har bir komponent uchun kutilayotgan natijalar — iqtisodiy samaradorlikni oshirish, qo'shilgan qiymat yaratish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash yo'nalishlari bo'yicha baholangan. Tadqiqot natijalari sanoat infratuzilmasining samarali boshqaruvi va optimallashtirilgan rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: sanoat infratuzilmasi, optimallashtirish mexanizmlari, boshqaruv tizimi, qo'shilgan qiymat, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, innovatsion rivojlanish.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу основных компонентов промышленной инфраструктуры и изучению механизмов их управления и оптимизации. Были определены и проанализированы механизмы управления и оптимизации для производственных предприятий, энергетических систем, транспортной и логистической инфраструктуры, информационно-коммуникационных технологий, технологических промышленных зон, а также инновационных услуг и научно-технической инфраструктуры. Ожидаемые результаты для каждого компонента оценены с точки зрения повышения экономической эффективности, создания добавленной стоимости, обеспечения экологической устойчивости и укрепления социальной стабильности. Результаты исследования позволяют сформулировать практические рекомендации для обеспечения эффективного управления и оптимизированного развития промышленной инфраструктуры.

Ключевые слова: промышленная инфраструктура, механизмы оптимизации, система управления, добавленная стоимость, экономическая эффективность, экологическая устойчивость, инновационное развитие.

Abstract

This article is dedicated to the analysis of the main components of industrial infrastructure and the study of their management and optimization mechanisms. Management and optimization mechanisms for production enterprises, energy systems, transport and logistics, information and communication technologies, technological industrial zones, as well as innovation services and scientific-technical infrastructure

components have been identified and analyzed. The expected outcomes for each component have been assessed in terms of enhancing economic efficiency, creating added value, ensuring environmental sustainability, and strengthening social stability. The research results allow for the development of practical recommendations to ensure effective management and optimized development of industrial infrastructure.

Keywords: industrial infrastructure, optimization mechanisms, management system, added value, economic efficiency, environmental sustainability, innovative development.

KIRISH

Zamonaviy sanoatning samarali rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan sanoat infratuzilmasini boshqarish hamda uni optimallashtirish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Global miqyosda sanoat tarmoqlari texnologik rivojlanish, avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida izchil o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ilg'or texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Sanoat infratuzilmasining samarali boshqaruvi va optimallashtirilgan rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Bundan tashqari, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari iqtisodiy o'sish, aholi bandligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, mazkur maqsadlar sanoat infratuzilmasini boshqarish va optimallashtirish mexanizmlarini chuqur tadqiq etish hamda takomillashtirishni bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida belgilab bermoqda [2, 3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat infratuzilmasi ishlab chiqarish korxonalarini, energetika tizimi, transport va logistika, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, texnologik sanoat zonalarini hamda innovatsion xizmatlar va ilmiy-texnik infratuzilma kabi asosiy komponentlardan tashkil topgan murakkab tizim bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, qo'shilgan qiymat yaratish, shuningdek, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

W. Wu va hammualliflar [4] yangi infratuzilma orqali boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilgan. M. Christopher [5] transport va logistika tizimlarini optimallashtirishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Ch. Ketels [6] innovatsion hududlar va mintaqaviy klasterlar orqali qo'shilgan qiymat yaratish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash omillarini yoritgan. Z. Yang va J. Zhang [7] esa raqamli infratuzilma yordamida resurslarni samarali taqsimlash va ishlab chiqarishni


modernizatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar sanoat infratuzilmasining har bir komponenti uchun boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlarini samarali qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni, qo'shilgan qiymatni va umumiy barqarorlikni oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot sanoat infratuzilmasining asosiy komponentlarini tahlil qilish, ularni boshqarish va optimallashtirish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ushbu komponentlar aniqlanib, ularning boshqaruv hamda optimallashtirish mexanizmlari tizimli tarzda o'rganilgan. Tizimli va indikatorli yondashuvlar, shuningdek, komparativ tahlil usullari qo'llanilib, natijalar asosida sanoat infratuzilmasini samarali boshqarish va optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat infratuzilmasi — bu milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning uzluksiz ishlashini ta'minlovchi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydigan kompleks tizimdir. Uning samarali faoliyati nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki innovatsion salohiyatni oshirish va global raqobatbardoshlikni mustahkamlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sanoat infratuzilmasi bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyalar va ko'rsatkichlar orqali tizimning umumiy samaradorligini belgilaydi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat infratuzilmasining asosiy komponentlari va ularning ko'rsatkichlari¹

¹ Muallif ishlanmasi

Sanoat infratuzilmasi — bu o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan murakkab tizim bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

1. Ishlab chiqarish korxonalari. Ishlab chiqarish korxonalari sanoat infratuzilmasining markaziy komponenti hisoblanadi. Ular sanoat jarayonlarining asosiy ishlab chiqaruvchi bo‘g‘inlarini tashkil etadi va iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardandir. Ushbu komponentning ko‘rsatkichlariga ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi, texnologik yangilanish darajasi va tarmoqlararo bog‘liqlik kiradi. Bu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi, mahsulot sifati hamda innovatsion salohiyatni baholash imkonini beradi. Ayniqsa, texnologik yangilanish darajasi korxonalarining global raqobatbardoshligi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonidir.

2. Energetika tizimi. Energetika sanoat infratuzilmasining uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlovchi eng muhim komponentlardan biridir. U nafaqat elektr energiyasi, balki issiqlik, tabiiy gaz va boshqa energiya resurslarini yetkazib berish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Energetika tizimining samaradorligi energiya yetkazib berish hajmi, uzluksizlik darajasi, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Shuningdek, energiya taqsimoti sanoat korxonalari va hududlar bo‘yicha resurslarning teng taqsimlanishini ta‘minlab, ishlab chiqarish jarayonlarining izchilligini va logistika xarajatlarining kamayishini kafolatlaydi.

3. Transport va logistika. Transport va logistika tizimi xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning tashilishi, omborlanishi va yetkazib berilishini tashkil etadi. Uning samaradorligi transport quvvati, yuk tashish tezligi, logistika samaradorligi, transport tarmoqlari integratsiyasi va xarajat samaradorligi orqali baholanadi. Bu tizim sanoat korxonalari va iste‘molchilar o‘rtasida uzluksiz ta‘minot zanjirini yaratish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berishni ta‘minlaydi.

4. Aloqa va axborot texnologiyalari. Ushbu komponent ma‘lumot almashish, monitoring, boshqaruv va raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash tizimlarini o‘z ichiga oladi. Asosiy ko‘rsatkichlar avtomatlashtirish darajasi, raqamli tizimlar soni, monitoring qamrovi, axborot xavfsizligi va boshqaruv samaradorligidir. Raqamli texnologiyalar sanoat jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruvni tezkorlashtirish imkonini beradi.

5. Texnologik sanoat zonalari. Texnologik sanoat zonalari — bu innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uchun maxsus ajratilgan hududlar bo‘lib, investitsiyalarni jalb qilish, yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish hamda sanoat innovatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning asosiy ko‘rsatkichlariga investitsiyalar hajmi, yuqori texnologiyali korxonalar soni, ish o‘rinlari soni, innovatsion ishlab chiqarish darajasi va qo‘shilgan qiymat hajmi kiradi. Bunday zonalar sanoatning raqobatbardoshligini oshirishda va yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

6. Innovatsion xizmatlar va ilmiy-texnik infratuzilma. Ushbu komponent sanoatning ilmiy va innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi. U ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D), patent va litsenziya tizimlari, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hamda texnologik transfer samaradorligini o'z ichiga oladi. Asosiy ko'rsatkichlarga tadqiqot loyihalari soni, patentlar va litsenziyalar, innovatsion mahsulotlar ulushi, texnologik transfer samaradorligi hamda ilmiy kadrlar salohiyati kiradi. Bu komponent sanoatning yuqori texnologiyali rivojlanishini va innovatsion salohiyatini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, sanoat infratuzilmasining samarali ishlashi va raqobatbardoshligini ta'minlash har bir komponentning boshqaruv hamda optimallashtirish mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etishga bog'liq. Ushbu mexanizmlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval
Sanoat infratuzilmasi komponentlarining boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlari¹

Komponent	Boshqaruv mexanizmlari	Optimallashtirish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Ishlab chiqarish korxonalari	Ish hajmi va resurslarni rejalashtirish, mehnat va texnologiya nazorati	Avtomatlashtirish jarayon samaradorligini oshirish	Mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi; iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik ta'minlanadi; mehnat unumdorligi yaxshilanadi
Energetika tizimi	Energiya yetkazib berishni nazorat qilish va rejalashtirish	Energiya samaradorligini oshirish, ortiqcha sarfni kamaytirish	Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlik va qo'shilgan qiymat oshadi; ekologik barqarorlik mustahkamlanadi; energiya ta'minoti uzluksiz bo'ladi
Transport va logistika	Yuk oqimi va transportni rejalashtirish, hududiy va milliy integratsiya	Optimal marshrutlar va xarajatlarni kamaytirish	Logistika samaradorligi oshadi; yetkazib berish jarayoni barqarorlashadi; iqtisodiy qo'shilgan qiymat va ekologik-ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi
Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari	Real vaqt monitoring va ma'lumot almashinuvi	Jarayonlarni avtomatlashtirish va resurslardan oqilona foydalanish	Ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligi oshadi; iqtisodiy va ekologik barqarorlik mustahkamlanadi; xavfsizlik va sifat yaxshilanadi
Texnologik sanoat zonalari	Investitsiyalar va yuqori texnologiyali korxonalarini boshqarish	Innovatsion ishlab chiqarish, qo'shilgan qiymatni oshirish	Yangi texnologiyalar joriy etiladi; iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik oshadi; ekologik xavflar kamayadi; ish o'rinlari yaratiladi

¹ Muallif ishlanmasi

Sanoat infratuzilmasining samarali ishlashi va uning raqobatbardoshligini ta'minlash har bir komponentning boshqaruv hamda optimallashtirish mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etishga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish korxonalari sanoat infratuzilmasining markaziy komponenti bo'lib, boshqaruv mexanizmlari ish hajmini va resurslarni rejalashtirish, mehnatni tashkil etish hamda texnologik jarayonlarni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Optimallashtirish mexanizmlari esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, texnologik modernizatsiya va resurslardan samarali foydalanish orqali mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi hamda iqtisodiy natijadorlikni oshiradi. Shu bilan birga, ular qo'shilgan qiymatni ko'paytiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va mehnat unumdorligini kuchaytiradi.

Energetika tizimi sanoat infratuzilmasining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Uning boshqaruv mexanizmlari energiya yetkazib berish jarayonini nazorat qilish, taqsimotni rejalashtirish va tizim xavfsizligini saqlashga qaratilgan. Optimallashtirish mexanizmlari esa energiya samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish va ortiqcha sarfni bartaraf etishga xizmat qiladi. Natijada resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi va energiya ta'minotining uzluksizligini kafolatlaydi.

Transport va logistika komponenti xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni yetkazib berish tizimini boshqaradi. Boshqaruv mexanizmlari yuk oqimini rejalashtirish, transport harakatini muvofiqlashtirish va milliy hamda mintaqaviy transport tarmoqlari bilan integratsiyani ta'minlashni o'z ichiga oladi. Optimallashtirish mexanizmlari esa optimal marshrutlar tanlash, transport xarajatlarini kamaytirish va yuk tashish jarayonlarining tezkorligini oshirishga yo'naltirilgan. Bu esa logistika samaradorligini kuchaytiradi, mahsulot yetkazib berish jarayonini barqarorlashtiradi, ekologik yukni kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sanoat jarayonlarini samarali boshqarish va real vaqt monitoringini ta'minlaydi. Boshqaruv mexanizmlari ma'lumot almashinuvi, tizim xavfsizligi va monitoringni nazorat qilishni o'z ichiga oladi, optimallashtirish mexanizmlari esa jarayonlarni avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari barqarorlashadi, xavfsizlik kuchayadi, ekologik va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, innovatsion hamda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashadi.

Texnologik sanoat zonalarini innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan hududlardir. Ularning boshqaruv mexanizmlari investitsiyalarni oqilona taqsimlash, infratuzilmani rivojlantirish va yuqori texnologiyali korxonalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Optimallashtirish mexanizmlari esa innovatsion ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shilgan qiymat yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Natijada yangi texnologiyalar joriy etiladi, ekologik xavflar nazorat ostida bo'ladi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va sanoatning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Innovatsion xizmatlar va ilmiy-texnik infratuzilma komponenti sanoatning ilmiy va texnologik rivojlanishini ta'minlaydi. Boshqaruv mexanizmlari R&D loyihalari, patent-litsenziya tizimi va ilmiy hamkorlik jarayonlarini nazorat qiladi, optimallashtirish mexanizmlari esa texnologik transfer, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada iqtisodiy raqobatbardoshlik oshadi, ekologik innovatsiyalar tatbiq etiladi va yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat infratuzilmasi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror ishlashini ta'minlovchi murakkab tizim bo'lib, uning samaradorligi ishlab chiqarish korxonalari, energetika tizimi, transport va logistika, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, texnologik sanoat zonalarini hamda innovatsion xizmatlar kabi komponentlarning o'zaro uyg'un faoliyatiga bog'liq. Har bir komponentning boshqaruv va optimallashtirish mexanizmlarini tizimli ravishda rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni, ekologik barqarorlikni va innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Sanoat infratuzilmasining umumiy samaradorligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va texnologik yangilanishni rag'batlantirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, transport va logistika tizimlarini optimallashtirish, axborot texnologiyalari orqali real vaqt monitoringini kuchaytirish, texnologik sanoat zonalarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish zarurdir. Shu orqali sanoatning uzoq muddatli barqarorligi va global raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

FOYADALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 11-sentabr PF-158-son. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/en/docs/-6600413>
2. Hanghang, D., Miaomiao, T., Jianda, W. & Giovanni, B. How broadband infrastructure development impacts green innovation? A corporate financialization mediated perspective. *Sustain. Dev.* 6, 6881–6902 (2024).
3. Kagermann, H., Wolfgang, W. & Helbig, J. Securing the future of German manufacturing industry. Recommendations for implementing the strategic initiative INDUSTRIE 4.0. In Final report of the Industrie 4.0 Working Group (2013).
4. W. Wu, Z. Ji, H. Liang, The Impact of New Infrastructure Construction on Optimization and Upgrading of Industrial Structure, Buildings, vol. 13, no. 10, p. 2580, 2023. <https://doi.org/10.3390/buildings13102580>
5. M. Christopher, Logistics and Supply Chain Management, 5th ed., Pearson, 2016. <https://www.amazon.com/Logistics-Supply-Management-Martin-Christopher/dp/1292416181>
6. C. Ketels, Recent Research on Competitiveness and Clusters: What Are the Implications for Regional Policy, *Cambridge Journal of Regions, Economy and*

Society, vol. 6, no. 2, pp. 269–280, 2013. <https://academic.oup.com/cjres/article-abstract/6/2/269/365901>

7. Zhixiong Yang & Jishun Zhang, Digital Infrastructure Construction and the Development of New-Quality Productive Forces in Enterprises, Scientific Reports, vol. 15, no. 1, p. 12345, 2025. <https://doi.org/10.1038/s41598-025-09897-w>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**